

O‘zbekiston va Koreya Respublikalari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar bosqichi

Guliston davlat universiteti

Tarix kafedrası o‘qituvchisi

Ne‘matov Rustam Abduvaid ugli

Tarix yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Kuvondikova Gavhar Farxodovna

<https://orcid.org/0000-0003-2465-5303>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi diplomatik, iqtisodiy, madaniy va ta‘lim sohalaridagi aloqalarning mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada ikki davlat o‘rtasida 1992-yilda o‘rnatilgan diplomatik munosabatlardan boshlab, bugungi kungacha erishilgan yutuqlar va hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari yoritib berilgan. Shuningdek, qo‘shma loyihalar, sarmoya jalb etish, texnologik va inson resurslari almashinuvi, madaniy tadbirlar hamda oliy ta‘limdagi hamkorlik misollar asosida tahlil qilingan. Maqola O‘zbekiston-Koreya munosabatlarining ijobiy istiqbollari va mustahkamlanayotgan strategik sheriklikni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Diplomatiq aloqalar, strategik hamkorlik, millatlararo totuvlik, savdo iqtisodiy aloqalar, oliy martabali tashriflar.

Abstract: This article analyzes the stages of development of diplomatic, economic, cultural and educational relations between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Korea during the years of independence. The article highlights the achievements and priority areas of cooperation between the two countries, starting from the establishment of diplomatic relations in 1992 to the present day. It also analyzes joint projects, investment attraction, technological and human resource exchange, cultural events, and cooperation in higher education based on examples. The article reveals the positive prospects of Uzbek-Korean relations and the strengthening of strategic partnership.

Keywords: Diplomatic relations, strategic cooperation, interethnic harmony, trade and economic relations, high-ranking visits.

Tarixdan ma‘lumki izchil muloqotlar va mushtarak intilishlar tufayli O‘zbekiston va Koreya o‘rtasida ochiqlik, o‘zaro hurmat va ishonch, yaqin strategik hamkorlikka asoslangan munosabatlar qaror topgan va bu aloqalar kundan - kunga yangi-yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Uzoq muddatli hamkorlik mobaynida bosib o‘tilgan samarali yo‘lga xolisona baho berib, shuni aytish mumkinki, Koreya Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirishda hamda jahon hamjamiyatiga bosqichma-bosqich

integrasiyalashishda mamlakatimizni keng qo'llab-quvvatlagan, vaqt sinovidan o'tgan va har jihatdan ishonchli strategik sherikdir.

O'zbekiston Koreya Respublikasiga yuksak darajada rivojlangan, ulkan iqtisodiy, innovasion va intellektual salohiyatga ega davlat sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi.

Tashqi siyosiy yo'nalishda mustaqil O'zbekiston tez sur'atlarda rivojlanayotgan dunyoning barcha davlatlari bilan, shu bilan birga Koreya Respublikasi bilan ham yaqindan hamkorlik qilishga urg'u bermoqda. Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib, ya'ni 1991-yilning oxirlarida tan olgan, diplomatik aloqalar 1992-yil 29-yanvarda o'rnatilgan. O'tgan 30 yillik davr mobaynida har ikki tomon davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ushbu uchrashuvlarning har birida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan kelishuvlarga erishganlar. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi strategik hamkorlik so'nggi yillar ichida sezilarli darajada rivojlandi. 1992-yilda diplomatik aloqalar o'rnatilganidan boshlab, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar izchil ravishda mustahkamlanib bordi. mustaqillik yillaridan hozirgi kungacha bo'lgan asosiy bosqichlar va hamkorlik yo'nalishlari haqida ma'lumot keltiriladi:

1992–2000-yillar: Diplomatik aloqalar bosqichi:

1992-yil 29-yanvar O'zbekiston va Koreya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1995-yilda Koreya Respublikasi O'zbekistonda o'z elchixonasini ochdi, shu bilan birga O'zbekiston ham Koreyada elchixona ochdi.

Koreya texnologiyalarini O'zbekistonga jalb qilish va investitsiyalarni kengaytirish bo'yicha dastlabki kelishuvlar amalga oshirildi.

2000–2010-yillar: Iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi

Koreya Respublikasi O'zbekistonga bir necha yirik texnologik va sanoat loyihalarini amalga oshirishda yordam berdi. Jumladan, IT, energetika, transport va sog'liqni saqlash sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirildi. 2006-yilda O'zbekiston va Koreya o'rtasida strategik sheriklik o'rnatilganligi e'lon qilindi. "Koica" tashkiloti orqali O'zbekistonda ta'lim va kadrlarni tayyorlash sohasida ko'plab loyihalar amalga oshirildi.

2010–2020-yillar: Strategik hamkorlikning kengayishi:

2014-yilda Toshkentda Inha Universiteti tashkil etildi, bu esa ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlikning yangi bosqichini ochdi. "Uz-Kor Gas Chemical" kabi qo'shma korxonalar tashkil etilib, ulkan gaz-kimyo loyihalari amalga oshirildi. Savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada kengaydi, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasi milliardlab AQSH dollariga yetdi.

2020-yildan hozirgacha: Innovatsion va madaniy hamkorlik:

2021-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasiga davlat tashrifi chog'ida yangi strategik kelishuvlar imzoladi. Bu tashrif davomida 5 milliard

dollardan ortiq investitsion loyihalar bo'yicha kelishuvlar tuzildi. Koreya O'zbekistonda "Smart City", raqamli transformatsiya, va ekologiya sohasidagi loyihalarni rivojlantirishda yetakchi hamkor hisoblanadi. Madaniy hamkorlik kuchayib, Koreya madaniyati (K-pop, K-drama) O'zbekistonda ommalashdi, o'z navbatida O'zbekistonning boy madaniy merosi Koreyada tanitilmoqda.

1994-yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Koreya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi. Ushbu tashrif O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi strategik hamkorlikning boshlanishida muhim qadam bo'ldi. Koreya kompaniyalari O'zbekiston iqtisodiyotiga yirik sarmoyalar kiritish bo'yicha kelishuvlarga erishdi. 1999- yil Islom Karimov Janubiy Koreyaga tashrif buyurib ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlashda o'z hissasini qo'shdilar. 1999- yil oktabr oyida Janubiy Koreyadagi yirik "Eksimbank" bilan "O'ZDAEWOO" avto zavodini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha bitim tuzildi. 4-6 oktabr kunlari prezident Kim De Jung bilan "O'ZDAEWOO" avto zavodida Nexsiya 2, Matiz rusumli avtomobil ishlab chiqarish, Toshkentda "DEU" rusumli dvigatel ishlab chiqarish korxonalari barpo etish loyihalari amalga oshirishga birgalikda sarmoya ajratish haqida hujjat imzolandi. 1999-yildan "O'zbekiston Koreya" do'stlik jamiyati ish olib bormoqda. Ushbu jamiyat natijada Koreya va O'zbekiston o'rtasida bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida O'zbekistonda yashaydigan koreys diasporasi qo'llab quvvatlashni aytishimiz mumkin.

2008-yil 25-27 fevral kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Koreya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi. Prezident Islom Karimov Seulda Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myong Bak (Lee Myung-bak) bilan muzokaralar o'tkazdi. Muzokaralar davomida quyidagi yo'nalishlarda kelishuvlarga erishildi: Janubiy Koreya kompaniyalari O'zbekistonga 2 milliard AQSh dollardan ortiq investitsiya kiritish rejasini e'lon qildi. Janubiy Koreyaning KOGAS (Korea Gas Corporation) va Lotte Group kompaniyalari O'zbekistonda gaz va neft qazib olish hamda qayta ishlash loyihalarida ishtirok etishga kelishdi. Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha yirik qo'shma loyiha imzolandi. O'zbekiston va Koreya muvaffaqiyatli iqtisodiy hamkorlik borasida katta tajriba to'plagan. Surg'il koni negizida barpo etilayotgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi ko'lami jihatidan g'oyat yirik loyiha sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etildi. Li Myon Bak (2008-2013-yillar) ma'muriyatining energiya va resurs diplomatiyasi va "Yangi Osiyo Tashabbusi"ni keng ko'lamli targ'ib etishi natijasida Markaziy Osiyoga yuqori darajadagi tashriflar tez-tez amalga oshirildi. Prezident Li Myon Bak 2009-yilning may oyida O'zbekiston va Qozog'istonga tashrif buyurib, salmoqli natijalarga erishdi. Xususan, O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov Janubiy Koreyaga uch marta: 2008-yil avgust, 2010-yil va 2012-yil sentyabr oylarida tashrif buyurib, ikki davlat ortasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga harakat qildi.

Xulosa o‘rnida aytganda, o‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi hamda Koreya Respublikasi o‘rtasidagi samarali hamkorlik strategik sheriklik darajasiga chiqdi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarda keyingi bo‘lib o‘tadigan do‘stona uchrashuvlar ham muhim bosqich bo‘ladi va ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo‘lida hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish hamda kengaytirishga katta turtki beradi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Koreya O‘zbekistonning eng yirik sarmoyaviy sheriklaridan biridir. Uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi 2 milliard AQSh dollaridan oshdi. Ayniqsa, neft-gaz, konchilik, neft kimyosi, logistika, qurilish sohalarida yirik loyihalar bor. Navoiy shahridagi xalqaro aeroport negizida barpo etilayotgan erkin industrial-iqtisodiy zona bunga yorqin misoldir. Shuni alohida qayd etish kerakki, O‘zbekiston aynan Janubiy Koreya bilan hamkorlikda ishlab chiqarishning murakkab, eng ilg‘or texnologiyalar talab qiladigan, tayyor mahsuloti yuksak darajadagi qo‘shimcha qiymatga ega turini o‘zlashtirib, dunyodagi sanoqli avtomobilsoz davlatlar qatoridan o‘rin oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Janubiy Koreya: strategik sheriklikning yangi bosqichi. Vendredi, 2017 yil 24-noyabr. <https://www.un.int/uzbekistan/fr/news/uzbekistan-%E2%80%93-south-korea-new-stage-strategic-partnership#>
2. Li Dji Yun. Koreya va O‘zbekistonning iqtisodiy hamkorlik shartnomasi. // Jamiyat va boshqaruv, 2009. №1.
3. V.S.Xan. Koreya tarixi. Toshkent-2011.
4. Xalq so‘zi gazetasi. 1996-yil 15-fevral..
5. Xalq so‘zi gazetasi. 2005-yil 10-may
6. <http://kor.theasian.asia/archives/199418>.
7. Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. American Journal of Philological Sciences, 5(02), 10-16.
8. Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 3(12), 72-78.
9. Nematov, R. A. (2024, December). ESTABLISHMENT OF THE ADMINISTRATION OF THE WESTERN TURKISH EMPIRE IN THE KHORAZM OASIS. In "INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 2, pp. 43-49).
10. Galiyev, S. (2024, September). O ‘ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

11. Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(9), 70-74.
12. Маргилоний, М. А. (1999). Тарихи Азий. Тошкент: Маънавият.
13. Сангирова, Д. Х. (2000). Тарихи Азизи. важный источник по истории изучения царского колониального периода: автореф.... канд. ист. наук. Ташкент, 1-2.
14. Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. A look at the past, (18), 27.
15. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(7), 540-545.
16. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFT'S TEACHING ABOUT BEING. Bulletin of Gulistan State University, 2021(2), 61-67.
17. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. Вестник Российского философского общества, (1-2), 200-209.
18. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). Проблемы современной науки и образования, (11 (53)), 44-45.
19. Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.
20. Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.
21. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).
22. Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. World Bulletin of Social Sciences, 16, 86-87.
23. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(5), 61-65.
24. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. Science and innovation, 3(Special Issue 6), 426-431.
25. Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 73-78.
26. Кудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. RESEARCH AND EDUCATION, 236.

27. Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 2(12), 13-16.

28. Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. Социосфера, (4), 226-232.

29. Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. Наука и образование: проблемы, идеи, инновации, (4), 26-30.

30. Дубков, В. В., Абдирахатов, Х., Джанибекова, Н. А., & Шодмонкулова, М. (2012). ОДНА ЗЕМЛЯ, ЕДИНОЕ ЧЕЛОВЕЧЕСТВО (Тезисы проекта Идеологии планетарного единства). In ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА И ФОРМИРОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (pp. 94-99).

31. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 6(01), 4-7.

32. MA'RUF OV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. News of the NUUz, 1(1.2. 1), 23-26.

33. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).